

Ta'limni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalar: Gulshan Xamrayevaning Yaponiyada bo'lib o'tgan treningdan olgan taassuroti

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Xamrayeva Gulshan Yaponiyada JICA tomonidan tashkil etilgan ta'limni boshqarish bo'yicha qisqa muddatli trening yuzasidan o'z tajribasi va fikrlari bilan bo'lishdi:

“Yaponiyaning Okinava shahrida o'tkazilgan asosiy ta'limdagi farqlarni kamaytirishda ta'lim dasturi doirasida qisqa muddatli o'quv kurslarida ishtirok etdim.

Ta'lim tizimidagi tengsizlik muammolarini oldini olish va barcha uchun teng ta'lim berishni amalga oshirish” loyihasi doirasida tashkil qilingan o'quv mashg'ulotlari davomida nafaqat Yaponiya ta'lim tizimi balki Yaponiya ta'limining rivojlanish tarixi, bosqichlari hamda ta'lim tizimining bugungi darajaga yetib kelgunga qadar tarixda ularning amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga dastur doirasida ishtirok etayotgan har bir mamlakat ta'lim tizimi, undagi olis hududlardagi ta'limdagi tengsizliklar, muammolar to'g'risida o'zaro muhokama va muammolarning hal qilish usullarini o'rganish imkonini berdi.

O'quv mashg'ulotlar davomida ta'lim sifati bevosita pedagoglarning sifat tarkibi bilan bog'liq ekanligi va Yaponiyada pedagoglarni ishga qabul qilish hamda ularni ish faoliyati davomida uzluksiz rivojlantirib borish tajribasi to'g'risida ma'lumot berildi.

Men uchun eng qiziq tomoni shundaki, bu tajriba menga bundan sakkiz yil avval xalq ta'limi bo'limida metodist sifatida ish faoliyatimni boshlaganimda asosiy kuchimni yosh, metodik yordamga muhtoj bo'lgan pedagoglar bilan ishlab, ularda uchragan metodik muammolarni ustoz o'qituvchilar biriktirish orqali bartaraf etish maqsadida o'tkazgan o'quv mashg'ulotlarimni eslatdi.

Oradan sakkiz yil o'tib, Yaponiyada aynan ushbu tajribaning ta'limdagi ahamiyati bilan tanishish jarayonida o'sha seminar yodimga tushdi va Ustoz-shogird tajribasi ta'lim sifatini oshirishda muhim ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Yaponiya ta'lim tizimida pedagoglar har yili tanlov asosida ishga qabul qilinib, tanlov har yili bir marotaba iyul oyida o'tkazilib, mazkur tanlovda nomzodlarga qo'yilgan yosh chegarasi 20 yoshdan 59 yoshgacha (nafaqaga chiqish yoshi 60 yosh, pedagoglar 65 yoshgacha faoliyat olib borishlari mumkin) etib belgilanganligi menda juda katta qiziqish uyg'otdi va faoliyatimning keyingi bosqichlarida mazkur tajribani O'zbekistonning ta'lim tizimiga olib kiritishni o'zim uchun navbatdagi rejalarimga kiritdim.

Shuningdek, pedagoglar uch yoki besh yilda malaka oshirish kurslarida ishtirok etib, ish joylari ta'limni boshqaruv organlari tomonidan bir maktabdan boshqa bir maktabga almashtirib boriladi. Ayrim pedagoglarning qo'shimcha qobilatlari va faolligi, bilim tajribalarini hisobga olgan holda shu maktabda uning tajriba va ish kuchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda, maktab direktorining tavsiyasi bilan ikki yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Bu amaliyotda pedagoglarni uzluksiz tajribasini oshirish bilan birga yillar davomida olgan tajriba va bilimlarini nafaqat bitta maktab o'quvchilariga balki bir nechta maktab o'quvchilari va o'qituvchilar bilan ham bo'lishadilar, pedagogik faoliyatini endi boshlayotgan pedagoglarga ahamiyat qaratilishi bilan birga olis va chekka hududlardagi ta'lim oluvchilar uchun ham teng bilim olish imkonini beradi.

Ishga qabul qilingan pedagoglar ish faoliyati davomida besh bosqichda bilimlarin uzluksiz rivojlantirib borilishi ham menda juda katta qiziqish uyg'otdi. Sababi pedagog ishga qabul qilingan dastlabki yillarda metodik yordamga ehtiyoji baland bo'lishi va yillar davomida tajriba oshirganda esa uning pedagogik mahorati shakllanib borar ekan, unga kasbiy malaka oshirishning zamonaviy usullarini o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ladi, aniq qilib aytadagan bo'lsak, mazkur jarayonda pedagogning tajribasidan kelib chiqqan holda malaka oshirish kurslariga jalb etilishi o'qituvchilarning faoliyati davomida juda foydali ekanligi va bu o'z o'rnida ta'lim sifatini oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, dastur davomida nafaqat bilim balki tajriba almashish imkoniga ham ega bo'ldim. Bu bilim va tajribalar nafaqat faoliyatim davomida balki yurtimiz ta'lim tizimi rivoji uchun ham manfaatli bo'ladi...

#Do all your best...

Bu aksariyat yapon xalqi o'rtasida ishlatiladigan ibora bo'lishiga qaramasdan gap orasida ular bu iborani yoqtirmasliklarini ham takidlab o'tdilar, chunki: biz nimaniki qilsak bor imkoniyatimiz bor kuchimiz bilan bajaramiz va o'zimizda bor barcha qobiliyatimizni ishga qo'shamiz deb ta'kidlashdi..."

